



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING STRATEGIK BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Jonikulov G'olibjon Akmalovich
“Я твой шанс” MChJ, rahbari

Annotatsiya

Maqolada raqamli ta'lim muhiti sharoitida umumta'lim muassasalari rahbarlarining strategik boshqaruv kompetentligini shakllantirish masalalari yoritilgan. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida boshqaruvning yangi yondashuvlari, raqamli yetakchilik, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish va innovatsion boshqaruv modellarini joriy etishni talab etmoqda. Tadqiqotda strategik boshqaruv kompetentligining tarkibiy qismlari aniqlashtirilib, uni rivojlantirish mexanizmlari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari umumta'lim muassasalari rahbarlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, strategik boshqaruv, kompetentlik, ta'lim menejmenti, raqamli transformatsiya, maktab rahbari.

ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ РУКОВОДИТЕЛЕЙ ОБЩЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ

Жоникулов Голибжон Акмалович
ООО «Я твой шанс», руководитель

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования стратегической управленческой компетенции руководителей средних учебных заведений в условиях цифровой образовательной среды. Процессы цифровой трансформации требуют внедрения в систему образования новых подходов к управлению, цифрового лидерства, принятия решений на основе данных и инновационных моделей управления. В исследовании определены компоненты стратегической управленческой компетенции и предложены механизмы ее развития. Результаты исследования служат для повышения цифровых компетенций руководителей средних учебных заведений, обеспечения качества образования и эффективности управления.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, стратегическое управление, компетенция, управление образованием, цифровая трансформация, директор школы.

FORMING STRATEGIC MANAGEMENT COMPETENCE OF HEADS OF GENERAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN A DIGITAL EDUCATIONAL ENVIRONMENT

Jonikulov G'olibjon Akmalovich
LLC “Ya tvoy shans”, Director

Abstract

The article discusses the issues of forming strategic management competence of heads of secondary educational institutions in the conditions of a digital educational environment. Digital transformation processes require the introduction of new approaches to management, digital

leadership, data-based decision-making and innovative management models in the education system. The study identifies the components of strategic management competence and proposes mechanisms for its development. The results of the study serve to improve the digital competencies of heads of secondary educational institutions, ensure the quality of education and management efficiency.

Keywords: digital educational environment, strategic management, competence, educational management, digital transformation, school principal.

Zamonaviy ta'lim tizimi rahbarlardan nafaqat soha bo'yicha chuqur bilimlarni, balki yuqori darajadagi boshqaruv kompetentligini ham talab etadi. Ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv kompetentligi uning samarali faoliyat yuritishi, ta'lim sifatini oshirishi, innovatsiyalarni joriy etishi va muassasaning raqobatbardoshligini ta'minlashi uchun muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar rahbarlarning boshqaruv bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishning turli usullari va shakllarini o'rganishga qaratilgan. Biroq, ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogic shartlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimi tubdan yangilanmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivoji umumta'lim muassasalari faoliyatini boshqarishda ham zamonaviy yondashuvlarni talab qilmoqda. An'anaviy boshqaruv uslublari o'rnini strategik fikrlashga, raqamli vositalardan samarali foydalanishga asoslangan boshqaruv modellari egallamoqda.

Umumta'lim muassasalari rahbarlari ta'lim jarayonini tashkil etish, resurslarni boshqarish, pedagogik jamoani rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, raqamli ta'lim muhitida rahbarlarning strategik boshqaruv kompetentligini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Ilmiy adabiyotlarda strategik boshqaruv kompetentligiga rahbarning uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ichki va tashqi muhitni tahlil qilish, resurslarni samarali taqsimlash hamda innovatsion qarorlar qabul qilish qobiliyati sifatida ta'rif beriladi. Raqamli ta'lim muhiti esa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, elektron resurslar va tahliliy ma'lumotlarga asoslangan ta'lim makonini ifodalaydi.

G.Kunts va S.O.Dannelning aniqlashicha, "Agar bo'ysunuvchilar rahbarlar tomonidan o'rnatilgan tartib qoidalar va ehtiyojlarga ko'ra boshqarilsa, ular o'z imkoniyatlarining taxminan 60 yoki 65% darajasida ishlashi mumkin, ya'ni o'z ishida saqlanib qolish maqsadida, shunchaki o'z majburiyatlarini qoniqarli darajada bajaradi, bo'ysunuvchilarning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun, rahbarlar liderlikni amalga oshirish bilan ularda tegishli mulohaza shakllantirishi zarur" Rahbarlik - odamlarga maqsadli ta'sir o'tkazishga qaratilgan, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish bilan bog'liq boshqaruvning tarkibiy qismidir. Saylab qo'yilgan yoki tayinlangan rahbar qator funktsiyalarni bajaradi: jamoa faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, shu faoliyatni rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, uni nazorat qilishni amalga oshiradi.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, taqqoslash, so'rovnoma, pedagogik kuzatuv va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Umumta'lim muassasalari rahbarlarining strategik boshqaruv kompetentligini baholash mezonlari ishlab chiqildi hamda tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMALAR. Boshqaruv qoidalariga rioya qilib ishlayotgan

maktab rahbarlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarni his etib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o'qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o'qib-o'rganish, o'rgatish uchun zaruriy muhit, o'quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar. Yangi ilmiy izlanishlar obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi. Boshqaruv madaniyati - bu ma'muriy ijtimoiy va rahbarning psixologik jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirishdagi professional va ishchanlik sifatli sintezidir.

“Rahbar” degan nomga ega bo'lgan har bir shaxs o'z tashqi qiyofasi, madaniyat kiyinishi, talabchanligi, bilimi, tashkilotchiligi bilan atrofdagilarga hamisha ibrat namuna bo'lmog'i lozim. Biz yuqorida ta'kidlangan mulohazalardan kelib chiqib, bugungi maktabgacha va maktab ta'limida sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarning kompetentligi yo'nalishidagi ba'zi kamchiliklari haqida quyidagi holatlarni tahlil qilindi:

-maktablarda boshqaruv ishlarini talab darajada emasligi; -fidoyilik, ijodkorlik, tashkilotchilik, kreativlikning yetishmasligi; -huquqiy madaniyat va savodxonlikning pastligi; -adolatlilik, halollik va insoflilikning yetishmasligi; -ish jarayonida mahalliylik va urug' aymoqchilikning ustuvorligi; -metodik birlashmalarga e'tibor bermaslik, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning yo'qligi;

-maktablarda jamoa ishlarini noto'g'ri taqsimlash va nazoratning pastligi; -kasbiy va ilmiy tajribaga ega emaslik.

Yuqoridagi mulohazalarni o'qib o'rganib, bugungi ta'lim- tarbiya sohasidagi qabul qilayotgan qarorlar asosida bugungi ta'lim jarayoniga menejerlik qilaman degan har bir iqtidorli shaxs o'zining kasbiy kompetentligiga tayanib, rahbarlik ishlarini tashkil qilishi lozim. Umuman olganda, ta'lim muassasalaridagi muvoffaqiyatlar rahbarning ijrochilar mexnatiga bo'lgan munosabatlaridan qanchalik manfaatdorliklarni anglata bilish. Qobiliyatiga sezilarli darajada bog'liqdir.

Zamonaviy menejerning muhim boshqaruv maqsadi o'z xodimlarini axloqiy hamda yuksak darajaga ko'tarishi ularni ma'naviy jihatdan sog'lom jamoaga aylantirishdan iboratdir. Umuman olganda, ta'lim muassasasidagi muvaffaqiyatlar rahbarning ijrochilar bo'lgan munosabatidan qanchalik manfaatdorligini anglata bilish qobiliyatiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2019 yil 23 avgustdagi xalq ta'limi tizimi xodimlari bilan bo'lgan telemuloqotda quyidagicha fikrlarni bildirganlar: “Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri - kasbiy kompetentligi va intellektual salohiyatining yuqoriligi, sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodligi va o'z kasbini sevishidir. Bu fazilatlar pedagoglarni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi”.

Bugungi talaba-yoshlarda kreativlikni shakllantirish uchun bugungi pedagog namunaviy intellektga ega bo'lishi, zamonaviy ta'lim-tarbiya qonuniyatlarini mukammal bilishi va shu asosda o'z kasbi bilan bog'liq ijodkorlik qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Bugungi professor-o'qituvchi o'z shogirdlariga Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy maslahat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda mantiqiy fikrlashga odatlantirish va ijod qilishni o'rgatishi kerak bo'ladi. Bo'lajak pedagoglarga kreativlik bo'yicha ijodiy faoliyat turlarini shakllantirish quyidagicha bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida strategik boshqaruv kompetentligini shakllantirish quyidagi tarkibiy qismlar orqali amalga oshiriladi:

- Kognitiv komponent: raqamli ta'lim, strategik rejalashtirish va ta'lim menejmentiga oid bilimlar;

- Amaliy komponent: raqamli vositalardan foydalanish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, loyiha va jarayonlarni boshqarish ko'nikmalari;

- Motivatsion-qadriyat komponent: innovatsiyalarga ochiqlik, uzluksiz kasbiy rivojlanishga intilish;

- Refleksiv komponent: boshqaruv faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati.

Tajriba-sinov natijalari rahbarlarning strategik fikrlash darajasi, raqamli vositalardan foydalanish faolligi va boshqaruv samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi. Bu esa taklif etilgan model va metodik tavsiyalarining samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim muhitida umumta'lim muassasalari rahbarlarining strategik boshqaruv kompetentligini shakllantirish ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omillaridan biridir. Ushbu kompetentlikni rivojlantirish rahbarlarning kasbiy salohiyatini oshiradi, ta'lim sifatini yaxshilaydi va raqamli transformatsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo'nalishda rahbarlar uchun maxsus o'quv dasturlari va raqamli trening platformalarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 488 b.
2. Kenjaboyev A.E. Pedagogik rahbarning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahorati. Zamonaviy ta'lim jur. 2020 № 10. 83 bet.
3. Kenjaboyev A.E. "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy kompetentligi va kreativligi bugungi kun talabidir". Xalq ta'limi jurnali 2020 yil № 5. 9-11 bet.
4. Musurmanova O. "Pedagogik texnologiyalar – ta'lim samaradorligi omili" T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2020 yil 56 bet.
5. Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyat ta'lim menejmenti jurnali. 2013 yil, №6, 2 bet.
6. Temirov D. Ta'lim muassalarini boshqarishda pedagogik tamoyillar uzviyligi. Ta'lim menejmenti jurnali. 2013 yil, №6. 95-96 betlar.
7. Shafoatovna, M. Z. Scientific and Theoretical Basis of Factors for Improving Family Education in a Multilingual Environment. World Bulletin of Management and Law, 1(1), 2021, 15-16.
8. Shafoatovna, M. Z. Factors That Improve Family Education in a Multilingual Environment. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 2003, 55-57.
9. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. – New York: Teachers College Press, 2016.